

DARSNING IJODIY MODELI YOXUD DARS – SAHNA, O‘QUVCHI – QAHRAMON: KREATIV YONDASHUVNING TARKIBIY QISMLARI

Xusanova Karimaxon Faxriddin qizi

e-mail: husanova.karima@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada kreativ ta'lim konsepsiyasi asosida darsning tarkibiy qismlarini qayta loyihalash masalalari ko'rib chiqiladi. An'anaviy dars shakllaridan farqli ravishda interaktiv, loyihaviy va faol o'qitish metodlari integratsiyasi tahlil qilinadi shuningdek mazku maqolada kreativ dars modeli bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar ham tahlilga tortilgan. Tadqiqotda o'quvchilarning bilimni egallash jarayonida mustaqil qaror qabul qilish, muammoni hal qilish va hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: kreativ ta'lim, dars modeli, faol o'qitish, interaktiv metodlar, dars tuzilishi, kreativ va tanqidiy fikrlash, innovatsion pedagogika.

Ta'lim – insoniyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Dars esa ta'lim jarayonining yuragi, asosiy sahnasidir. O'qituvchi – shu sahnaning rejissyori, o'quvchi esa bosh qahramonidir. Bugungi texnologiya bilan bevosita aloqador bo'lgan tezkor davr ta'lim jarayonini ham tubdan o'zgartirishni talab qilmoqda. Ta'limda kreativlikni rivojlantirish zamon talablariga moslash demakdir. Bu jarayonda o'quvchilarning faolligini rag'batlantiruvchi dars strukturalari ham muhim o'rin tutadi

An'anaviy dars tuzilmasi o'quvchiga ma'lum bilimlarni berishda samarali bo'lsa-da, u har doim ham o'quvchilarning qiziqishini uyg'ota olmaydi. Ayniqsa, bugungi avlod – tez fikrlaydigan, texnologiya bilan o'sayotgan, mustaqil bo'lishga intiladigan yoshlar uchun darsning qiziqarli, jonli va kreativ bo'lishi juda muhim. Shu sababdan, darsning tarkibiy qismlariga yangicha, kreativ yondashuvni ishlab chiqish zarurati tug'iladi. Yillar davomida maktablarda an'anaviy dars tuzilmasi qo'llanib kelgan. U asosan quyidagi bosqichlardan iborat:

1. **Tashkiliy qism** – o'quvchilarni darsga tayyorlash, davomatni tekshirish.
2. **O'tilgan mavzuni takrorlash** – avvalgi bilimlarni yodga olish, savol-javob qilish.
3. **Yangi mavzuni tushuntirish** – o'qituvchi markazda turib, o'quvchilarga yangi ma'lumotlarni yetkazadi.
4. **Mustahkamlash** – mashqlar bajarish, yozma yoki og'zaki topshiriqlar.
5. **Yakun va uyga vazifa** – mavzuni qisqa xulosa qilish va mashq topshirig'i berish.

Bu model o'z zamonida samarali bo'lgan, ammo uning muammolari ham yo'q emas: o'qituvchi asosiy so'zlovchi, o'quvchi esa passiv tinglovchi bo'lib qoladi, mustaqil izlanish va kreativ fikrlash imkoniyatlari cheklanadi. Bugungi kun darsi an'anaviy qoliplarni buzishi, o'quvchini faol, ijodkor va izlanuvchan qilib shakllantirishi kerak. Shu sababli darsni quyidagi **kreativ tarkibiy qismlar** asosida tashkil etish mumkin: An'anaviy "Tashkiliy qism" o'rniga **"Diqqatni uyg'otish"** qismi o'quvchining fikrini jamlashga va uni darsga qiziqishini uyg'otishga mo'ljallangan usul hisoblanadi. Bunda o'qituvchi sinf xonasiga kirganidan so'ng, bolalarning holati va kayfiyatiga qarab turli salomlashuv metodlaridan yoki o'quvchiga energiya va kayfiyat ulashuvchi enerjayzer mashqlaridan foydalanishi mumkin. Salomlashuvda "Zanjir", "Men tanishtiraman...", "4 taraf", "Tashrif qog'ozi" metodlaridan foydalanilsa, o'quvchilarning kayfiyati yanada ko'tariladi. O'qituvchi har dars boshida o'quvchilari uchun notanish bo'lgan biror qiziqarli voqea, kun yangiligi yoki kun tarixi bilan aloqador ma'lumotlarni aytib borsa, o'quvchilarning faqatgina maktab va darslik bilan cheklanib qolishini oldini olgan bo'ladi. Yoki o'quvchilarga turli kutilmagan savollar berib, ularni kreativ fikrlashga o'rgatishi ham mumkin. Masalan, "Agar elektr toki birdan yo'qolsa, hayotimiz qanday bo'lardi?" kabi savolini berish, o'quvchilarni mantiqiy va kreativ o'ylashga majbur qiladi. Afzalligi o'quvchi buni darsga aloqador biror topshiriq, qandaydir mashq yoki misol va uyga vazifa deb qabul qilmaydi, natijada sinf muhitida erkinlik ta'minlanadi. Bu bosqichda o'quvchilar darhol jonlanadi va barcha darsda faol qatnashishga harakat qiladi.

Uyga vazifani tekshirish fan xususiyatlari va o'tiladigan yangi mavzuning hajmiga ko'ra darsning istalgan qismida o'tkzilishi mumkin. Ammo bu muhim jarayon darsning zerikarli bosqichi bo'lib qolmasligi lozim. Vaqt va anchagina mehnat talab qiluvchi uy vazifasini tekshirish jarayoniga oid ko'plab samarali, qiziqarli va noodatiy metodlar mavjud¹ bo'lib, "To'g'ri-not'g'ri", "Rostini top", "Duel", "Svetafor chiroqlari" va "Daraxtni gullating" metodlari shular jumlasidan.

Kashf etish va izlanish. An'anaviy "Yangi mavzuni tushuntirish" qismida o'qituvchi asosiy axborotni berardi, o'quvchi esa passiv tinglovchi bo'lib qoladi. Kreativ yondashuvda esa o'quvchilarning o'zi izlanadi. Bunda yangi mavzuga aloqador bo'lgan muhim masalalar tahlilga tortiladi va o'quvchilar xoh yakka holda, xoh guruh bilan ishlagan holda muammoga yechim topishadi. Turli tajriba va kuzatishlar hamda internet yoki kitobdan mustaqil o'rgangan ma'lumotlarini jamlab, umumiy xulosaga kelishadi. Masalan, tarix darsida o'qituvchi "O'zbekiston mustaqilligi jarayonini qanday tasavvur qilasiz?" deb savol beradi va o'quvchilar hujjatlar, suratlar, mavzuga doir videolar va guvohlar hikoyalaridan foydalanib, taqdimot tayyorlab kelishadi. Bu yondashuv o'quvchining nafaqat mavzuga, balki

¹ Yusufjonova N, Sizda 45 daqiqa bor. –Toshkent: Chashma, 2024. – B.34.

fanga ham qiziqishini orrtiradi. Sababi darslik, avvalo, o'quvchi uchun. U uyida ham kitobida keltirilgan ma'lumotlarni o'qib olaveradi. O'qituvchi qanchalik ziyrak va intiluvchan bo'lsa, o'quvchilariga darslikdan tashqari va mavzuga aloqador bo'lgan qo'shimcha ma'lumotlarni ham berib boradi. Sababi, har bir dars o'quvchilarda hayotiy zarur bilim va ko'nikmalarni shakllantirish hamda ijobiy sifatlarni rivojlantirishga, shuningdek, aniq bir o'quv muammosini hal qilishga xizmat qiladi. Yangi mavzu bayoni ana shu jarayonning yuragi hisoblanadi². Bu bosqichda "Aqliy hujum", "Soat millari", "Kodlangan ma'lumotlar" va "Maktub" metodlaridan foydalansa dars yanada qiziqarli va jonli bo'ladi.

Amalda qo'llash. Bu bosqichda o'quvchilar o'rgangan ma'lumotlarini amalda sinab ko'rishadi. Masalan, matematika darsida o'quvchilar moliyaviy byudjet tuzish bo'yicha loyiha yaratishlari, adabiyot darsida asar qahramonlari rovida chiqishlar qilishi, kimyo darsida esa moddalar reaksiyasini amalda qo'llab ko'rishlari mumkin. Natijada o'quvchilarning darsda olgan nazariy bilimlari yanada mustahkamlanadi. Bu bosqichda olingan bilimlar hayotiy vaziyatlarga ulanadi va o'quvchi o'rganganini real hayotda qanday ishlatish mumkinligini tushunadi.

Refleksiya va ilhom olish. Dars oxirida faqatgina "xulosa" emas, balki o'quvchining o'zini anglash jarayoni bo'lishi kerak. Unda "Bugun men nimani kashf qildim?", "Qaysi savol menga eng qiziq bo'ldi?" "Bu mavzuni hayotimda qanday ishlatishim mumkin?" kabi savollarga javob bo'lishi kerak. Refleksiya turli usullar bilan amalga oshirilishi mumkin: rasm chizish, bitta so'z bilan darsni ifodalash yoki 1 daqiqalik yozma xulosa. Tadqiqotchi A.Baltayeva "O'quvchilarni tanqidiy fikrlashga yo'naltirishda quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi: o'quvchidan o'z fikrini asoslashni talab qilish, zarur dalillarni tekshirishga undash; o'z dalillarining to'g'riligini tekshirish uchun ekspertlarga murojaat qilishga yo'naltirish; dalillarni bevosita tekshirishga odatlantirish; muqobil izohlarni izlab topish; sezgilarga asoslangan holda boshqa dalillarni aniqlash; isbotlanmagan dalillarning chalg'ituvchi xarakterga ega ekanligini anglab yetish; namunaga asoslangan holda o'z oldiga muammolar qo'yish; amaliy ma'lumotlarning qanchalik unumli ekanligini tushunib yetish; ma'lumotlarni tanlab tayanishga odatlanish; o'z xulosalarining xatoligi va aniq emasligiga iqrar bo'lish; har bir dalilda tabiiylik mavjudligini tushunish"³ kerakligini ta'kidlaydi. Bir so'z bilan aytganda, o'quvchilarning o'z fikrlarini ochiq ayta olishga o'rgatish, fikrlarining aniq, ravshan bo'lishi, tushunarli va maqbul fikrlashlari bugungi adabiy ta'limning asosiy vazifalaridan sanaladi.

Keyingi qadamlarga ko'prik. Uyga vazifani an'anaviy mashqlardan ko'ra, differensial yodashib, hayotiy va o'quvchilar uchun qiziq bo'lgan topshiriqlar berish,

² Yusufjonova N, Sizda 45 daqiqa bor. –Toshkent: Chashma, 2024. – B.45.

³ Балтаева А. Т. Адабиёт дарсларида ўқувчиларни бадиий асар қаҳрамонларини танқидий баҳолашга ўргатиш технологияси. Пед. фан. б. фалс. док (PhD)... дисс. – Тошкент, 2020. –Б. 19.

o'quvchini yanada ilhomlantiradi. Misol uchun Biologiya darsida – atrofdagi daraxtlarni kuzatish va hisobot yozish, Ingliz tilida – ota-onasi bilan ingliz tilida oddiy suhbat qilish, Tarixda – bobosi yoki buvisidan o'tmish haqida hikoya yozib olish. Shu bilan birgalikda, mavzuga doir savollar yoki krossvord tuzish, mavzuni aks ettiruvchi rasm chizish, mavzuga doir loyiha, video yoki fotolavha tayyorlash kabi usullardan foydalansa ham bo'ladi va har bir o'quvchi o'z qiziqishidan kelib chiqib, uyga vazifani tayyorlab keladi va bunday topshiriqlar o'quvchilarni mavzuni hayotiy tajribalar orqali o'rganishga undaydi. Agar o'quvchilar o'qish jarayoniga o'zlari mas'ul ekanliklarini tushunib yetsalar tanqidiy fikrlash o'zining ijobiy natijasini beradi. B.Farbermanning fikriga kora, "O'quvchilar o'sha murakkab darajadagi o'quv jarayonida ishtirok etishsa, bilish jarayonida qatnashganligidan katta bahra oladilar va o'zlarida chuqur qoniqish hissini sezadilar"⁴. Bundan ko'rinib turibdiki, o'quvchining o'z fikridan qoniqish hissi uni keyingi mavzularda ham faol ishtirok etishga undaydi va o'rganayotgan faniga qiziqishni kuchaytiradi.

Bundan tashqari, dars so'ngida "**O'quvchilarni rag'batlantirish**" ni ham unutmasligimiz lozim. Bu qismda o'quvchilarga kayfiyat beruvchi qarsak va olqishlar, kichik mukofotlar, yulduzchalar, emoji kartochkalar, shirin so'zlar bankidan foydalanilgan e'tirof so'zlari yoki "O'z-o'zini baholash" hamda "Do'stona baho" metodlaridan foydalanish mumkin

Darsning tarkibiy qismlarida turli kreativ metodlardan foydalanish, mavzuning yanada tushunarli bo'lishi va o'quvchilar yodida qolishiga yordam beradi. Bunda quyidagi bir nechta usullardan o'rinli foydalanish ham tavsiya etiladi:

- **Gamifikatsiya** – darsni o'yin elementlari orqali tashkil qilish. Masalan, ball yig'ish, "missiya bajarish", testni "qahramon sayohati"ga aylantirish.
- **Storytelling** – mavzuni hikoya orqali tushuntirish. Masalan, fizika darsida "bir elektronning sayohati" haqida hikoya qilish.
- **STEAM yondashuvi** – fanlararo integratsiya. Masalan, matematika va san'atni birlashtirib, geometrik shakllardan mozaika yasash.
- **Kutilmagan bashorat** – darsni sirli gap yoki savol bilan boshlash. Masalan, "Bugun siz kelajakdagi shahringiz loyihasini yaratasiz".
- **Interaktiv texnologiyalar** – Mentimeter, Kahoot, Jamboard kabi platformalar orqali hamkorlikni kuchaytirish.

Kreativ darsning bir qator afzalliklari bor. Jumladan. o'quvchilarni dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi, mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. hamkorlik va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini kuchaytiradi. o'quvchini o'qishga emas, o'rganishga undaydi. hayotiy vaziyatlarga moslashuvchanlikni oshiradi. Darsga kreativ yondashuvning qiyinchiliklari ham yo'q emas. Masalan, ayrim o'qituvchilar yangicha metodlarni sinab ko'rishdan qo'rqishadi yoki vaqt chegaralanganligi tufayli

⁴Фарберман Б. Л. Прогрессивные педагогические технологии. – Тошкент: 1999. – С.165.

rejadagi barcha vazifalarni o'z o'rnida bajarishga harakat qilishadi va ta'limga bunday yondashuv sinfda tartibni saqlashni qiyinlashtiradi. Lekin har narsaning iloji bor deganlaridek, bu muammolarga ham yechim toppish mumkin. Buning uchun o'qituvchilarga har oy turli metodik treninglar o'tkazilishi, har darsda bosqichma-bosqich, kichik, lekin kreativ bo'lgan elementlarni qo'shib boorish yokida dars rejasini moslashuvchan qilib, qat'iy qolipdan chiqishga harakat qilish kerak.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, dars tuzilmasi qat'iy o'rnatilgan qolip emas, aksincha, u moslashuvchan, o'quvchi ehtiyojiga qarab o'zgarib boruvchi jarayondir. An'anaviy model o'z o'rniga, ammo uni kreativ yondashuv bilan boyitish bugungi avlod uchun zarur. O'quvchi darsda nafaqat bilim olishi, balki hayotiy tajribaga ega bo'lishi kerak. Dars – bu sahna, o'quvchi – qahramon, o'qituvchi esa shu jarayonni yo'naltiruvchi rejissyor. Qahramon qiziqmasa, asar jonli chiqmaydi. Demak, kreativ tarkibiy qismlar – o'quvchini o'z sahnasining haqiqiy bosh qahramoniga aylantiradigan eng kuchli vositadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yusufjonova N, Sizda 45 daqiqa bor. –Toshkent: Chashma, 2024.
2. Балтаева А. Т. Адабиёт дарсларида ўқувчиларни бадиий асар қаҳрамонларини танқидий баҳолашга ўргатиш технологияси. Пед. фан. б. фалс. док (PhD)... дисс. – Тошкент, 2020. –Б. 19.
3. Фарберман Б. Л. Прогрессивные педагогические технологии. – Тошкент: 1999. – С.165.